

## QUR'ONI KARIM MATNIDA MUZAKKAR VA MUANNAS SO'ZLAR MATN SIYOQIGA KO'RA TANLANISHINING AHAMIYATI

Mamadaliyev Muhsin Saydazimovich

Ma'lumki, Qur'oni karim o'zining uslubi, nazmi, qamragan ilm-u hikmatlari, ta'sirliligi bilan insoniyatni o'z qarsisida ojiz qoldiruvchi kitobdir. Ilm-fan asrlardir qanchalik rivojlansada, uning e'jozi qarshisida ojiz qolgan Islomning abadiy mo'jizasidir. Uning bayoniy e'jozi, balog'at-u fasohati ko'rinishlaridan biri esa –ayni so'zda muzakkar va muannaslikning matn siyoqiga ko'ra turlicha kelishidir. Misol uchun:

فَرِيقًا هَدَىٰ وَفَرِيقًا حَقَّ عَلَيْهِمُ الضَّلَالَةُ إِنَّهُمْ اتَّخَذُوا الشَّيَاطِينَ أَوْلِيَاءَ مِن دُونِ اللَّهِ وَيَحْسَبُونَ أَنَّهُم مُّهْتَدُونَ

“Bir guruhni hidoyat qildi. Boshqa guruhga yo'ldan ozish haq bo'ldi. Chunki, ular Allohni qo'yib shaytonlarni o'zlariga do'st tutdilar. Hamda o'zlarini, albatta, hidoyat topganlar, deb hisoblarlar”. (A'rof surasi 30-oyat)

وَمِنْهُمْ مَّنْ حَقَّتْ عَلَيْهِ الضَّلَالَةُ فَمَا تُرْوُوا فِي الْأَرْضِ فَاَنْظُرُوا كَيْفَ كَانَ عَاقِبَةُ الْمُكْذِبِينَ

“Va ba'zilariga esa, zalolat haq bo'ldi. Bas, yer yuzida sayr qilib yurib, yolg'onga chaqiruvchilarning oqibati qanday bo'lganiga nazar soling”. (Nahl surasi 36-oyat)

Yuqoridagi misolda ko'rishimiz mumkinki, "الضلالة" so'zining fe'li bir o'rinda muannaslik “ta” sisiz, yana bir o'rinda esa muannaslik “ta” si bilan kelmoqda. Nahviy qoidaga ko'ra, ikkala o'rinda ham fe'l va uning foili o'rtasida ajratuvchi fosila kelgani tufayli fe'lni muzakkar jinsida ham, muannas jinsida ham berilishi joiz bo'ladi. Ammo Qur'on siyoqidagi o'ziga xos yetuklik shuni ko'rsatadiki, birinchi o'rinda so'z azob haqida ketmoqda, chunki undan oldingi oyatlarda oxirat haqida so'z bordi va bu zalolat – oxiratda haq bo'luvchi azobdir. Ikkinchi o'rinda esa bu dunyodagi zalolat – shirk va hidoyatdan adashuvdir. Dunyodagi zalolat oxiratdagi zalolatdan xosroq bo'lgani uchun ikkinchi misoldagi fe'l muannaslik “ta” si bilan keldi.

Nahviy qoidaga ko'ra, agar ko'plik sinq – jam'i taksir yoki majoziy muannas bo'lsa, fe'lni muzakkar jinsda ham, muannas jinsda ham berish joiz bo'ladi. Qur'oni karimda esa ba'zi o'rinlarda muzakkar kelgan bo'lsa, uning o'ziga xos sababi, shuningdek, muannas jinsda kelgan bo'lsa ham uning o'ziga xos sababi bo'ladi:

Misol uchun: "رسل" kalimasi:

Bu kalimaning asl ma'nosi – yuborilganlardir. Qur'oni karimda bu kalima gohida payg'ambarlar ma'nosida kelsa, gohida payg'ambarlarga yuborilgan elchilar ma'nosida keladi. Qur'on siyoqiga ko'ra, ushbu kalima foili bo'layotgan fe'l muzakkar bo'lsa, u ish Zakariyo, Yahyo, Iso aliyhimussalomlar kabi oldingi o'tgan payg'ambarlardan sodir bo'lgan umumiy bir ish haqida bo'ladi.

قُلْ قَدْ جَاءَكُمْ رَسُولٌ مِّن قَبْلِي بِالْبَيِّنَاتِ وَبِالذِّكْرِ قُلْتُمْ فَلِمَ قَتَلْتُمُوهُمْ إِن كُنْتُمْ صَادِقِينَ

“Mendan oldin ham sizlarga Payg'ambarlar ochiq-oydin bayonotlar va siz aytgan narsa bilan kelganlar. Agar rostgo'y bo'lsalaringiz, nimaga ularni o'ldirdingiz?” deb ayt”. (Oli Imron surasi, 183-oyat)

Agar fe'l muannas shaklda kelsa, payg'ambarlar va qavmlari o'rtasida o'tgan suhbat yoki elchilar va ularning yuborganlar o'rtasidagi aloqa yaqinligiga dalolat qiladi:

لَقَدْ جَاءَتْ رُسُلٌ رَبِّنَا بِالْحَقِّ

“Robbimizning elchilari haqni keltirdilar”,(- dedilar)”. (A’rof surasi, 43-oyat.)

وَلَمَّا أَنْ جَاءَتْ رُسُلُنَا لَوْطًا سَيِّئًا بِهِمْ وَضَاقَ بِهِمْ ذَرْعًا

“Elchilarimiz Lutga kelishganida, u ular sababli mahzun bo’ldi va kelishlaridan yuragi siqildi”. (Ankabut surasi, 33-oyat.)

Qur’on siyoqida jumlar qurilishidagi muzakkar va muannaslik borasida xulosa qiladigan bo’lsak, bir qancha shakllar yuzaga chiqadi:

1) Agar fe’l muzakkar keladigan bo’lsa: “رسل” kalimasi umumiy ish va ozlikni ifodalaydi; “الملائكة” kalimasi esa ishning quvvatligi, bo’ysunish va kuchli mavqifni ifodalaydi; “أصحاب” kalimasi esa kamchilikni bildiradi; “البغضاء” kalimasi esa nafrat ma’nosida keladi.

Agar fe’l muannas keladigan bo’lsa: “الرسال” kalimasi xoslikni va ko’pchilikni ifodalab keladi; “الملائكة” kalimasi qiyomat holatini bildiradi; “نساء” kalimasi esa oz sonli jam’ni ifodalaydi; “أصحاب” kalimasi ko’plikka dalolat qiladi; “البغضاء” kalimasi muannas fe’li bilan kelsa, nafratning yanada kuchli ekaniga dalolat qiladi.

2) Agar fe’l muzakkar keladigan bo’lsa: “بينات” kalimasi buyruq va qaytariq ma’nosida bo’ladi; “آيات” kalimasi dalil, burhon va belgi ma’nosini ifodalaydi; “الطيبات” kalimasi umumiy ishga dalolat qilib keladi; “المؤمنات” kalimasi ayollar jamoasi (to’dasi) ma’nosini bildiradi; “سينات” kalimasi ko’plik, jazo, oqibat ma’nolarini ifodalaydi.

Agar fe’l muannas keladigan bo’lsa: “بينات” kalimasi nabiylikni tasdiqlovchi mo’jizalar ma’nosini bildiradi; “آيات” kalimasi Qur’on oyatlari haqida bo’ladi; “أمهات” kalimasi umumiylik va ko’plik ma’nosini ifodalaydi.

3) Agar fe’l muzakkar keladigan bo’lsa: “طائفة” lafzi ozchilik, kichik guruh ma’nolarini ifodalaydi; “قوم” so’zi birgina qavm ma’nosida; “الإنس والجن” so’zlari oxirat haqidagi kontekstda kelayotgan bo’ladi.

Agar fe’l muannas keladigan bo’lsa: “طائفة” lafzi ko’pchilik va katta jamoat ma’nolarini ifodalaydi; “قوم” so’zi ham ko’pchilik ma’nosida; “الإنس والجن” so’zlari dunyo haqidagi kontekstda kelayotgan bo’ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qur’oni karim.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Qur’oni karim ma’nolar tarjimasini”. – Toshkent, “Hilol” nashriyoti, 2019.
3. Fozil Solih Somirroi. Muroatul maqom. 1-nashr. Bayrut-2015.
4. Abdulaziz Mansur. Qur’oni karim ma’nolarining tarjimasini. – Toshkent: TIU, 2018. – 618.
5. Fozil Solih Somirroi. Balog’atul kalima fit ta’biril qur’aniy. Qohira-2006.
6. Abu Mansur Moturidiy. Ta’vilatul Qur’an. M.Bosallam tahriri. – Bayrut, Dorul kutubil ilmiyya, 1971.



7. Fozil Solih Somirroiy. Lamasat bayaniyya fi nususin minat tanzil. 3-nashr. Ammon-2003.